

BIR OG‘IZ SHIRIN SO‘ZNING TIBBIYOTDAGI MUHIM O‘RNI

*Normamatova Gulmira Baxodir qizi**Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi**Toshkent viloyat filiali Bekobod tumanlararo**sud-tibbiy ekspertiza bo‘linmasi laboranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot hodimlarini muloqot madaniyatining ahamiyati tahlil qilinadi. Muloqot madaniyati shifokorlar, hamshiralar va boshqa tibbiyot xodimlarining kasbi, irqi, jinsidan qat’iy nazar bemorlarga nisbatan shirin so‘z, ochiq ko‘ngil, samimiy bo‘lishlik tushiniladi. Shuningdek, maqolada “bir og‘iz shirin so‘z bilan insonni davolasa bo‘ladi” tibbiyot xodimlarini etikasi to‘g‘risida so‘z boradi. Samimiylik nafaqat tibbiyot balkim boshqa kasblarda xam muxim ahamiyat kasb etadi. Bir og‘iz shirin so‘z bilan inson qalbiga nur bag‘ishlay olish faqatgina tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: Tibbiyot, muloqot madaniyati, irqi, jinsi, kasb, samimiylik, ochiq-ko‘ngillik, bemor (fuqarolar) ishonchi, tibbiyot xodimlari.

Tibbiyot sohasida muloqot madaniyati nafaqat tashqi ko‘rinish, balki bemorlar bilan o‘zaro munosabatlar, kasbiy etikaga rioya qilish va ishning samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot xodimlarining o‘zini tutish madaniyati 2 turga bo‘linadi. Ichki va tashqi madaniyat. Ichki madaniyat-tartib-intizom, atrofdagilarga bo‘lgan munosabat, axloqi, do‘stona, g‘amxo‘rlik darajasi va birdamlik tuyg‘ulari qirsa. Tashqi madaniyatga- tibbiyot xodimining tashqi qiyofasi, qiyinishi, o‘zini tutishi muloqot, so‘zlashish madaniyati va patsientda qoldirgan ijobiy ta’suroti kiradi.

Tibbiyot xodimi ma’naviyati deganda ma’nili fikrlash, so‘zlash, shuningdev shaxsiyatidagi, tarbiya va odobli xamda amaliyotdagi barcha ijobiy xatti xarakatlar majmuasi tushiniladi.

Tibbiyot sohasida muloqot madaniyati muhim rol o‘ynaydi, chunki u bemorlar uchun nafaqat fiziologik, balki psixologik ahamiyatga ham ega. Muloqotning tibbiyotdagi o‘rni quyidagi jihatlarda ko‘rinadi:

Xamshiralik etikasi: E’tika so‘zi yunoncha aethos- so‘zidan olingan birlib, yurish-turish, odob-ahloq degan ma’noni anglatadi. Ahloq deganda kishilarning bir-biriga munosabati, e’tiqodi tarbiyasi, xulq-atvornormalari yig‘indisiga aytiladi. Tibbiyot xodimi bemor bilan muloqotga kirishar ekan, uning ko‘z o‘ngida ma’lum man’noda kachiliklardan xli, yuksak axloqli inson sifatida gavdalanishi zarur.

Professionalizm: Hamshira va bemor o‘rtasida munosabat. Hozirgi zamon hamshirasilan nafaqat malakali mutaxxassi bo‘lishi, balki tibbiy, madaniy, ma’naviy

bilimlari targ'ibotchisi, tashkilotchisi bo'lish talab etiladi. Hamshiralik kasbiga o'zini bag'ishlagan inson o'z atrofdagilarga mehribon, ularning jami qayg'uli kuni, shodliklariga sherik bo'la oladigan, o'zidan kechib bo'lsada har doim bemorga yordam berishga tayyor bo'lmog'i lozim. Insoniylik, xushfellik hamshiraning muhim sifatlaridan biridir.

Bemorlarning psixologik holati: Muloqot madaniyatiga roiya qilgan xolda bemorlar bilan muloqot qilinsa davolash osson va samarali bo'ladi. Samimiy muloqotdan so'ng bemorlarda kasallikni yengish va tuzalish ossonlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 62-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2022-yil 24-martdagi "Tibbiyot xodimlarining odob-axloq Kodeksini tasdiqlash haqida"gi 88-sonli buyrug'i qabul qilingan.

Tibbiyot xodimining Kodeksga rioya etishi uning kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulk-atvorini baholash mezonlaridan biri Xisoblanadi.

Kodeksning maqsad va vazifalari:

-Ushbu Kodeksning maqsadi tibbiyot xodimlari tomonidan xukukbuzarlik sodir etilishining oldini olish, ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, tibbiyot muassasasi rahbar va xodimlarini yuksak huquqiy ong, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunlari va boshka normativ-huqukiy xujjatlariga, fukarolarning huquq va erkinliklariga kat'iy rioya mutaxassislar ruhiga singdirishni ta'minlash.

-O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi tizimidagi barcha tashkilotlarda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning xizmatdagi xulk-atvorini baholash, shuningdek, yuksak ma'naviy-axlokiy fazilatlarga ega, jamiyat, davlat va oila oldida o'z mas'uliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashki siyosatini to'g'ri anglaydigan, vatanparvar va xalqparvar. tashabbuskor, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak insoniy fazilatlarni o'zida namoyon etgan irodasi baquvvat, imoni butun va vijdoni uyg'ok mutaxassislarni tarbiyalash Kodeksnig asosiy vazifalari xisoblanadi.

-Kodeks tizimdagi barcha tibbiyot muassasalari (tibbiyot davolash-profilaktika, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda korxonalar) xodimlarining tibbiyot deontologiyasi hamda kasb etikasini mukammal egallab, unga sidqidildan amal qilishini ko'zda tutadi.

Xulosa: Tibbiyot xodimini muloqot madaniyati bir shaxsni xayotini saqlab qolish yoki uni umriga zomin bo'lishga qodir. Shuni takidlab o'tish joizki tibbiyot xodimi xar bir bemor bilan muloqotda etikaga rioya etishligi ish samarasini yanada oshirishiga zamin yaratadi.

Birinchidan, tibbiyot xodimlarining yuqori samimiy muloqoti bemorni kasalligini, ruxiyatini yaxshilashga, bemor va tibbiyot xodimi o'rtasida o'zaro insoniylik tuyg'ularini yanada muxsaxkamladi.

Ikkinchidan, tibbiyot xodimi nafaqat tibbiyot sohasida balkim jamiyatni xar bir sohasidagi xar bir xodim bir-birlariga iliq-saqmimiy, shirin so'z bo'lishsa ish unumdorligi oshishiga yordam beradi.

Uchinchidan, muloqot madaniyati, bizning tibbiyot sohasidagi "yatronegiya" tushunchasi bor, shifokor yoki xamshiraning farosatsizligi, notjo'ya ko'rsatmalari, qo'pol xatti-harakatlari, bilimsizligi va loqaydligi, qisqacha aytganda tibbiyot xodimining aybi bilan paydo bo'ladigan kasallikdir. Yatrogen kasallari shifoko, hamshira va sanitar xatti-xarakatlari va gap-so'zlarning yoki bemorga qilingan boshqa salbiy ta'sirdan kelib chiqadigan kasallikdir. Shuning uchun tibbiyot xodimlari tibbiy psixologiyaning ahamiyatini boshqa xodimlarga karaganda puxta va mukammal egallab olishlari va uni amaliyotda qo'llashlari lozim bo'ladi. Bu nafaqat bemorlar, balki tibbiyot xodimlarining o'zlarini kasbiy va madaniy jihatdan yaxshi his qilishlariga ham yordam beradi, bu esa bemorlar sog'lig'ini yaxshilashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tibbiyot vakillarining kiyinish odobi, tibbiy deontologiyasi va madaniyati nizomi "Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi barcha boshqaruv apparati, tibbiyot davolash-profilaktika hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, tashkilot, korxonalar xodim, talabalar va abituriyentlarning tibbiy deontologiyasi va madaniyati to'g'risida"gi NIZOM.

2. Avloniy A., Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent, 1992.

3. M.F.Ziyaeva, M.D.Xodjasheva. O'z.Res. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. "Qariyalarda xamshiralik parvarishi. 2014-184b